



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM

OPEN  ACCESS

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna Sharipov Kongratbay Avezimbetovich THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdulkarim qizi TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna	



KIRISH

Kichik biznes uchun raqamli platformalarni joriy etishning bugungi holati raqamli transformatsiya va texnologiyalarni keng qo'llash natijasida sezilarli rivojlanish bosqichida.

Hozirgi kunda kichik biznesda raqamli platformalar quyidagi yo'nalishlarda joriy etilmoqda:

Elektron tijorat saytlari: Mahsulotlarni onlayn savdoga chiqarish va turli xizmatlarni ko'rsatish uchun platformalar.

Marketpleyslar: Tayyor savdo maydonchalaridan foydalanish, masalan, Amazon, Wildberries yoki mahalliy platformalar.

Mobil ilovalar: Kichik biznesning mijozlar bilan yaqinroq ishlashi uchun qulay vosita.

O'zbekistonda elektron tijorat hajmi so'nggi yillarda ortib bormoqda, lekin xalqaro bozorlarga chiqish hali cheklangan. Mahalliy marketpleyslar (Uzum Market, Wildberries) kichik biznes egalari uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda. Mobil ilovalar yaratish va ulardan foydalanish faqat yirik brendlar orasida rivojlanmoqda, kichik biznes bu sohada hali faol emas. KPMG xalqaro auditorlik kompaniyasi O'zbekistondagi elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravarga kengayishini prognoz qildi. Kompaniya o'z **hisobotida** bozorning kengayishiga ta'sir qiluvchi omillar va to'siqlarni sanab o'tdi.

O'zbekiston chakana savdo bozori 2022 yil 31-dekabr holatiga 14 mlrd dollarga baholandi. 2027-yil yakunigacha bu ko'rsatkich 19,6 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Elektron savdo bozori 2022-yil 31-dekabr holatiga jami chakana savdo bozorining 2,2 foizini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2027-yil yakunlariga borib 9 foizdan 11 foizgacha oraliqda shakllanishi kutilmoqda. Ya'ni 1,8–2,2 mlrd dollar bo'lishi, o'sish tempi 2022–2027-yillar davomida 41,4–47,4 oraliqda bo'lishi prognoz qilingan.

Mamlakat aholisi 36 mln 372 ming nafarni (2023-yil 1-iyul) tashkil etadi va aholining 40 foizi — 14 mln 393 ming nafari 15–39 yoshda. Mamlakatdagi odamlarning 23 mln 533 ming nafari internetdan foydalanadi. Aholi orasida bank xizmatlari qamrovi 49 foizni, internet qamrovi 77 foizni tashkil etmoqda¹.

Ushbu maqola da rivojlangan mamlakatlar hamda O'zbekistonda kichik biznes uchun raqamli platformalarni joriy etishning bugungi holati raqamli transformatsiya va texnologiyalarni keng qo'llash natijasi qiyosiy tahlili, ma'lumotlar guruhlash, jamlash usullaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes faoliyatida raqamli platformalarning o'rni va ahamiyati so'nggi yillarda iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, elektron tijorat, marketpleyslar va mobil ilovalarning biznes jarayonlariga integratsiyalashuvi tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini yaratmoqda.

R.H. Ayupov o'zining "Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yoritib bergan. Muallif elektron savdo platformalari biznes subyektlariga vaqt va mablag'ni tejash, savdo operatsiyalarini avtomatlashtirish hamda iste'molchilar bilan samarali muloqot qilish imkonini berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, elektron tijoratning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasiga xizmat qilishi qayd etilgan.

Sh. Tuychiyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jahonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan elektron savdo kompaniyalari tajribasi tahlil qilingan. Muallif elektron platformalardan foydalanish korxonalarga savdo geografiasini kengaytirish, yangi mijozlarni jalb qilish va marketing xarajatlarni optimallashtirish imkonini berishini asoslab bergan. Tadqiqot natijalari elektron tijorat platformalarining kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

G. Mahmudova raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijoratning tutgan o'rnini tadqiq etib, uning iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qilishdagi roliga alohida e'tibor qaratgan. Muallifning fikricha, elektron tijorat tizimlarining rivojlanishi biznes yuritish shakllarini tubdan o'zgartirib, tadbirkorlik subyektlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, kichik biznes uchun raqamli platformalar bozor ishtirokchilari sonini kengaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

M. Ravshanova elektron tijorat tushunchasi va uning O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari tahlil qilib, mazkur sohaning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini qayd etadi. Muallif elektron tijorat platformalarining kichik biznes subyektlari uchun yangi savdo kanallarini yaratishi, mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlashi va biznesning barqaror rivojlanishiga ko'maklashishini ta'kidlaydi.

1 Bahodir A.O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi kutilmoqda — KPMG // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>



D. Xakimjanovanning ilmiy ishlarida xorijiy davlatlarda elektron tijoratni rivojlantirish tendensiyalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda elektron savdo platformalari, marketpleyslar va mobil texnologiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Muallif ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida qo'llash elektron tijorat bozorining yanada rivojlanishiga xizmat qilishini qayd etadi.

Usmonova Adiba Azim qizining tadqiqotlarida O'zbekistonda elektron tijoratning turli sohalarda rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Muallif mamlakatda elektron to'lov tizimlari, internet xizmatlari va marketpleyslarning kengayishi elektron savdo hajmining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatib bergan. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

D. Po'latxujayeva xalqaro savdoda elektron tijoratning ahamiyatini tadqiq etib, raqamli texnologiyalar global savdo aloqalarining rivojlanishida muhim o'rin tutayotganligini asoslab bergan. Muallif elektron platformalar yordamida kichik biznes korxonalari xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo'layotganligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, KPMG xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan e'lon qilingan tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi prognoz qilinmoqda. Ushbu holat mamlakatda raqamli platformalar, marketpleyslar va mobil ilovalarning iqtisodiyotdagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat saytlari, marketpleyslar va mobil ilovalar kichik biznesning rivojlanishida muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, savdo hajmini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish hamda korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda aynan raqamli platformalarning kichik biznes rivojlanishiga kompleks ta'siri, ularning afzalliklari va amaliy muammolari yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mazkur maqola ana shu jihatlarni tadqiq etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida kichik biznes subyektlarida raqamli platformalarni joriy etishning bugungi holati, ularning iqtisodiy samaradorligi hamda istiqbollarini har tomonlama tahlil qilish maqsadida tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari, xalqaro auditorlik va konsalting kompaniyalari (xususan, KPMG) hisobotlari hamda elektron tijorat sohasidagi dolzarb statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bu ma'lumotlar kichik biznes uchun raqamli platformalar, jumladan, elektron tijorat saytlari, marketpleyslar va mobil ilovalarning joriy holatini xolisona baholashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli. Mazkur usul orqali rivojlangan mamlakatlardagi raqamli texnologiyalarni biznesga tatbiq etish tajribasi hamda O'zbekistondagi mavjud amaliyot o'zaro qiyoslandi. Bu jarayonda kichik biznes uchun raqamli platformalarning afzalliklari, ularni joriy etishdagi mavjud to'siqlar hamda texnik-infratuzilmaviy omillar aniqlandi.

Uchinchidan, guruhlash va tahlil usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida elektron tijoratning kichik biznes rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillar guruhlandi. Shuningdek, raqamli platformalarning operatsion samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va xaridorlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilindi.

To'rtinchidan, prognozlash yondashuvi. Mavjud statistika va rivojlanish tendensiyalari asosida O'zbekiston kichik biznes sektorida raqamli transformatsiyaning kelgusi istiqbollarini baholandi. Bunda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan ko'mak, texnologik yechimlarning ommalashuvi va tadbirkorlarning raqamli savodxonligini oshirish omillarining ta'siri hisobga olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichiki biznesda elektron tijorat saytlaridan foydalanish yangi imkoniyatlarni ochib beradi, jumladan, kengroq auditoriyaga yetib borish, savdo hajmini oshirish va biznesni avtomatlashtirish. Ushbu tahlilda elektron tijorat saytlari joriy etilishining ahamiyati, afzalliklari, mavjud muammolari va rivojlanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Xitoydagi eng yirik kompaniyalardan biri – Alibaba Group ning asoschisi va direktorlar kengashi raisi Djek Maning ta'kidlashicha, "Taxminan 30 yillardan so'ng, biznesning 80% dan ortiq internet orqali amalga oshiriladi.

Agar bu paytga kelib, ertangi kun uchun qandaydir yechimingiz bo'lmasa, bu yechim kimdadir albatta bo'ladi". Haqiqatan ham, bugungi kunda informatsion va kommunikatsion texnologiyalar xayotimizning barcha soxalariga shiddat bilan kirib kelmoqda².

² R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, B.471.



Bugungi kunda elektron tijorat saytlari joriy etilishining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: Bozor chegaralarini kengaytirish: Elektron tijorat orqali kichik biznes mahalliy va xalqaro auditoriyaga xizmat ko'rsatishi mumkin.

Ish jarayonlarini avtomatlashtirish: Buyurtmalarni boshqarish, to'lovlarni qabul qilish va yetkazib berishni tashkil qilish jarayonlari soddalashtiriladi.

Ma'lumotlardan foydalanish: Saytdagi xaridorlar faoliyati asosida marketing strategiyalarini takomillashtirish imkoniyati.

2022-yil aprel oyida amazon.com eng ko'p tashrif buyuriladigan elektron tijorat va xaridlar veb-saytiga aylanadi. Foydalanuvchilar saytga o'rtacha olti daqiqa vaqt sarflashadi va ular har bir tashrifda 8,78 sahifani ko'rishadi. Bitta sahifani o'qib chiqib saytni tark etgan tashrif buyuruvchilar foiziga kelsak, Amazonning chiqish darajasi 35,77 foizni tashkil qiladi. Ro'yxatda yana ikkita sayt bor, eBay va Amazon.com eBay.com saytiga o'rtacha tashrif vaqti olti daqiqa, har bir tashrif uchun o'rtacha sahifalar soni 6,75 va chiqish tezligi 37,23 foizni tashkil qiladi³.

Elektron tijorat saytlari joriy etilishining hozirgi holati haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbekistonda joriy bozor holatiga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda elektron tijorat hajmi o'sishda davom etmoqda. Kichik bizneslar o'z mahsulot va xizmatlarini onlayn savdoga qo'yishni boshladi.

Amaldagi platformalar: Kichik biznes subyektlari ko'proq tayyor tizimlardan (Shopify, WooCommerce) foydalanmoqda yoki mahalliy platformalar (Uzum Market) orqali faoliyat yuritmoqda. Mobil to'lov tizimlari (Click, Payme) elektron tijorat rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Elektron tijorat orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi yiliga o'rtacha 20–25% ga oshmoqda. Kichik biznesda elektron tijoratdan foydalanish ko'rsatkichi hali past darajada bo'lib, asosan yirik shaharlarda rivojlangan. Marketpleyslar kichik biznes uchun zamonaviy raqamli savdo platformasi bo'lib, ular mahsulot va xizmatlarni kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Quyida kichik biznesda marketpleyslarni joriy etishning hozirgi holati, afzalliklari, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Elektron pochta orqali elektron tijorat statistikasini kuzatadigan bo'lsak, iste'molchilarning 61 foizi elektron brendlar bilan pochta orqali bog'lanishni afzal ko'rishadi. Elektron pochta marketingi investitsiya rentabelligi (ROI) 4400 foizga teng, ya'ni sarflangan har bir dollar 44 dollar daromad olib keladi. AQShdagi 1000 ta eng yirik onlayn internet do'konlarining 58 foizi "xush kelibsiz" elektron pochta xabarlarini yuboradi. Mobil elektron tijorat statistikasini kuzatadigan bo'lsak, hozirda barcha bayram xaridlarining 40 foizdan ortig'i mobil qurilmalarda amalga oshiriladi. Qo'shma Shtatlardagi internet foydalanuvchilarining 82 foizi onlayn xarid qilish uchun mobil qurilmalardan foydalangan. Smartfon va planshet egalarining 53 foizi korporativ dasturlar orqali xarid qiladi.⁴

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat platformalari, marketpleyslar va mobil ilovalar kichik biznes subyektlarining faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu platformalar tadbirkorlarga bozor imkoniyatlarini kengaytirish, xaridorlar bilan samarali aloqa o'rnatish hamda biznes jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Elektron tijorat platformalarining asosiy afzalliklaridan biri mahsulot va xizmatlarni keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatidir. Mazkur platformalar orqali kichik biznes subyektlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorlarga ham chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, buyurtmalarni boshqarish va real vaqt rejimida tahliliy ma'lumotlarni olish imkoniyati biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi. Natijada savdo hajmi ortib, operatsion xarajatlar qisqaradi.

Marketpleyslar ham kichik biznes rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ularning afzalligi shundaki, logistika, to'lov tizimlari va marketing xizmatlari kabi zarur infratuzilma elementlari oldindan shakllantirilgan bo'ladi. Bu esa tadbirkorlarga qo'shimcha resurs sarflamasdan qisqa muddatda o'z faoliyatini yo'lga qo'yish va mahsulotlarini bozorga chiqarish imkonini beradi.

Mobil ilovalar esa mijozlar bilan bevosita muloqot qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Ular orqali iste'molchilarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan xizmatlar hamda individual chegirmalarni taklif etish mumkin. Shuningdek, mobil ilovalar korxona va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, brendga sodiqlikni oshirish va xaridorlar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqobat muhiti ham kichik biznes uchun jiddiy sinov hisoblanadi. Mahalliy va xalqaro platformalarda faoliyat yuritayotgan ko'plab kompaniyalar o'rtasidagi kuchli raqobat sharoitida kichik biznes subyektlari o'z mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilish uchun qo'shimcha marketing xarajatlarini amalga oshirishga majbur bo'ladi. Brendning bozordagi tan olinishi va iste'molchilar ishonchini qozonish jarayoni ham muayyan vaqt va resurslarni talab etadi.

3 Sh.Tuychiyev. Eng yaxshi rivojlangan elektron savdo kompaniyasi tajribasini o'rganishni tahlil qilish. // Science and innovation Journal. Vol.1. Issue. 5. 2022. B.18.

4 G.Mahmudova. Raqamli iqtisodiyot va unda elektron tijoratning o'imi. // Raqamli iqtisodiyot. Moliyachi ma'lumotnomasi. O'zMU, 11 (119) 2021. B.8.



Kelgusida kichik biznesda raqamli platformalarni joriy etish imkoniyatlari yanada kengayishi kutilmoqda. Xususan, davlat tomonidan raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish, mahalliy elektron tijorat platformalariga subsidiyalar ajratish va soliq imtiyozlarini taqdim etish ushbu sohaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tadbirkorlarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida elektron tijorat, marketpleyslardan foydalanish va mobil ilovalarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus o'quv kurslari hamda amaliy treninglarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari asosida kichik biznes uchun arzon va samarali raqamli yechimlarni yaratish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mobil to'lov tizimlari, jumladan, Click va Payme kabi xizmatlarning keng qo'llanilishi elektron tijoratning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamli platformalar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish, biznes jarayonlarini takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mobil ilovalar va ularning kichik biznes uchun ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: mobil ilovalar kichik biznesning operatsion samaradorligini oshiradi va mijozlar uchun qulaylik yaratadi. Asosiy vazifalari:

Xizmatlarni shaxsiylashtirish: Har bir mijozga mos keladigan xizmat va mahsulotlarni taklif qilish.

Tezkor aloqa: Xaridorlar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish.

Savdo jarayonlarini soddalashtirish: Xarid qilishni osonlashtiruvchi interfeys va to'lov tizimlari integratsiyasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznesda mobil ilovalarni joriy etishning bugungi holati sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Global ko'lamda 2024-yilda kichik biznes egalari orasida mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi 30 foizga oshgani kuzatilmoqda, ilovalar orqali amalga oshirilayotgan savdo hajmi esa yiliga o'rtacha 25–30 foizga ko'payib bormoqda. O'zbekiston misolida mobil ilovalar kichik biznes sohasida jadal rivojlanib borayotgan istiqbolli yo'nalish hisoblanib, u asosan quyidagi tarmoqlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda:

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish (masalan, MyTaxi Food, Express24 kabi platformalar).

Savdo va xizmat ko'rsatish sohasi (Uzum, Payme integratsiyalashgan tizimlari).

Aholining smartfonlardan faol foydalanishi kichik biznes subyektlarini mobil platformalarga o'tishga keng rag'batlantirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mahalliy kichik bizneslarning 15–20 foizi o'z mobil ilovalariga ega bo'lib, ular orqali kelib tushayotgan buyurtmalar umumiy savdo aylanmasining 10–15 foizini tashkil etmoqda. Jilin va Safaryan (2020) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bugungi kunda kompaniyalarning 37 foizi algoritmik xizmatlar va elektron tijorat texnologiyalaridan samarali foydalanmoqda. Bu esa kelajakda ilg'or intellektual texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari doimiy ravishda kengayib borishidan dalolat beradi [1].

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi O'zbekiston mehnat bozori tarkibiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqori axborot texnologiyalarini keng miqyosda sanoatlashtirish minglab yangi va zamonaviy ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashuvi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi oshishi hamda elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport salohiyatimizni yanada yuksaltiradi. Elektron tijorat aholi turmush darajasini oshirish bilan bir qatorda, marketing va menejment kabi sohalarining ham zamonaviy talablar asosida rivojlanishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Mazkur sohaning taraqqiyoti milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlarga chiqish va keng auditoriyani qamrab olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan to'g'ri strategik yo'l kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi ishtirokchilaridan biriga aylantirishga xizmat qiladi. Sohadagi mavjud vazifalarni tizimli va samarali hal etish mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlash, xalq farovonligini yuksaltirish va jamiyatimizning barqaror taraqqiyotiga bevosita ijobiy hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bahodir A. O'zbekistonda elektron tijorat bozori 2027-yilga borib 6–7 baravar kengayishi kutilmoqda — KPMG // <https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/25/e-commerce/>
2. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, B.471.
3. Sh. Tuychiyev. Eng yaxshi rivojlangan elektron savdo kompaniyasi tajribasini o'rganishni tahlil qilish. // Science and innovation Journal. Vol.1. Issue. 5. 2022. B.18.



4. G.Mahmudova. Raqamli Iqtisodiyot va unda electron tijoratning o'rne. // Raqamli iqtisodiyot. Moliyachi ma'lumotnomasi. O'zMU, 11 (119) 2021. B.8.

5.M.Ravshanova. Elektron tijorat tushunchasi va ushbu sohani O'zbekistonda rivojlantirishning ahamiyati. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(5), May, 2023. P.417.

6. D.Xakimjanova. Xorijiy davlatlarda elektron tijoratni rivojlantirish tendensiyalari. // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali | 6-son. B.199.

7.Uzbek Scholar Journal Volume- 21, October, 2023 www.uzbekscholar.com. O'zbekistonda elektron tijoratning sohalarda rivojlanishi Usmonova Adiba Azim qizi Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

8. D.Pulatxujayeva. Xalqaro savdoda elektron tijoratning ahamiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy electron jurnal. V son - may, 2024. B.240.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>